

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIY TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIY XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUVISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH

Otajanov Umid Ablullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ekonometrika” kafedrası professori,
i.f.d., dotsent,
Tel: +998886160701

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida investitsion muhitni yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida iqtisodiy tahlillar amalga oshirilgan. Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha ko‘plab bitimlar imzolanmoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash uchun davlat siyosatining asosiy vazifalari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, iqtisodiy tahlil, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, rag‘batlantirish, samaradorlik, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация

В данном исследовании рассмотрены вопросы улучшения инвестиционного климата и повышения эффективности привлечения инвестиций в Хорезмской области Республики Узбекистан. Экономический анализ осуществлён на основе методов научной абстракции, анализа, синтеза, индукции и дедукции. В настоящее время в стране подписывается множество соглашений о поощрении и защите иностранных инвестиций. Представлены основные задачи и предложения государственной политики по улучшению инвестиционного климата.

Ключевые слова: инвестиции, экономический анализ, иностранные инвестиции, инвестиционный климат, стимулирование, эффективность, экономическое развитие.

Abstract

This study examines the issues of improving the investment climate and increasing the efficiency of attracting investments in the Khorezm region of the Republic of Uzbekistan. Economic analyses were carried out based on scientific abstraction, analysis, synthesis, induction, and deduction methods. Currently, numerous agreements are being signed to encourage and protect foreign investments in the country. The main tasks and proposals of state policy for improving the investment environment are presented.

Keywords: investment, economic analysis, foreign investments, investment climate, incentives, efficiency, economic development.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 2022-yilda Fransiyaga xorijiy investitsiyalar 3 foizga oshgan bo‘lsa, Buyuk Britaniya va

Germaniya keyingi eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi, ammo faollik 2021-yilga nisbatan mos ravishda 1 foizga oshgan bo'lsa-da, 2019-yilga nisbatan 6 foizga kamaydi [1].¹ To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyotini global qiymat zanjirlari bilan bog'lashga yordam beradi va iqtisodiy yuksalishni osonlashtiradi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatlarga investitsiyalar, ish o'rinalari, eksportning ko'payishi, ta'minot zanjirining tarqalishi, yangi texnologiyalar va biznes amaliyotlarini olib keladi [2].²

Shunga muvofiq, xususiy sektorning samarali investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlar o'sish strategiyalarining muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi [3].³

Unga ko'ra, mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan, 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ularning to'laqonli ado etilishi mamlakatimizdagi mavjud texnologik va moliyaviy rivojlanish darajasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xorijiy investitsiyalar, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi masalasi mamlakatimizning alohida olingan hududlarida ham ilmiy tadqiq etib borilishi zaruriyatini namoyon qilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotga va uning tarkibiy qismi bo'lgan kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli jihatlari qator xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari L. Dj. Gitman, M. D. Djonk [4], J. Dunning, R. Narullo [5], T. G. Kubakh [6], S. Hladii [7] kabi yetakchi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rivojlanayotgan davlatlarda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes

¹ Foreign direct investment in Europe stalls amidst economic uncertainty, France remains top destination for investors. 11 May 2023, https://www.ey.com/en_gl/news/2023/05/foreign-direct-investment-in-europe-stalls-amidst-economic-uncertainty-france-remains-top-destination-for-investors

² Investment Policy and Promotion. <https://www.worldbank.org/en/topic/investment-climate/brief/investment-policy-and-promotion>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/6600413>

sohasida shakllanishi va rivojlanishi masalalari MDH olimlaridan A. A. Agafonov [8], V. K. Bugayev [9], Z. V. Gerasimchuk [10], L. V. Davydova [11], V. V. Ignatyuk [12], Yu. A. Malaxova, V. M. Sukmanyuklarning ilmiy ishlarida keltirib o'tilgan.

O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va undan samarali foydalanishning nazariy-amaliy jihatlari A. V. Vaxabov [13], N. G. Karimov [14], B. T. Bayxonov [15], U. A. Otajanov [16], Sh. G'. Yuldashev [17], R. Z. Yuldashev [18], D. D. Rustamova [19], E. A. Maxmudov [20] va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Ushbu keltirib o'tilgan mualliflarning ishlarida xorijiy investitsiyalarning mazmuni, mohiyati va uni milliy iqtisodiyotning kichik biznes sohasiga jalb etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Biroq iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellariga oid alohida ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, guruhlash, ekonometrik tahlil hamda tenglamalar tizimi asosida prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolagan. Qonunchilikni takomillashtirish bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tartib-taomillarni maksimal darajada soddalashtirish, investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirish shartlari barqarorligini kafolatlash va boshqa mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, qulay investitsiya muhitini yaratish davlat siyosatining vazifalaridan biri bo'lib, jozibador investitsiya imijini ta'minlash, aholi daromadlari va jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish, xorijiy investorlarga kafolatlarni tartibga soluvchi qonunlar to'plamini belgilash, investitsiya loyihalari sonini ko'paytirish, xususiy investitsiyalarga asoslanishi lozim bo'lgan investitsiyalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish, tarmoqlar, korxonalar va hududlar darajasida tegishli huquqiy hujjatlarni joriy etish, natijalarni tizimlashtirish va O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsion jozibadorligi prognozlarini ishlab chiqish uchun investitsiya muhiti monitoringi markazini yaratish, mahalliy sharoit va xorijiy investorlar bilan hamkorlik tajribasidan kelib chiqqan holda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish, ustuvor tarmoqlarda xorijiy investorlarga qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berishni qonunchilik bilan tartibga solish hamda xalqaro kapital bozorlarida mamlakatning jozibador qiyofasini yaratish kabi vazifalar belgilangan [18], [19].

Mavzu doirasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida investitsion muhitni yaxshilash, investitsiyadan foydalanish va uning kichik

biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hamda investitsion jozibadorligini baholash masalasi ko'rib chiqiladi. Buning uchun tadqiqot obyekti bo'lgan Xorazm viloyatining asosiy kapitaliga o'zlashtirilgan investitsiyalar va uning tarkibiga kirgan xorijiy hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'zgarish dinamikasining ko'p omilli ekonometrik tahlili amalga oshiriladi [20].

Shu ma'noda, Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya – YAKI hajmiga ta'sir etuvchi oliy o'quv yurtini bitiruvchilari soni – X1, kichik biznes subyektlari soni – X2, kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X3 va jami mehnat resurslari soni – X4 omillari o'rtasida ekonometrik tahlil amalga oshiriladi (1-jadval) [20, 21, 22].

1-jadval

Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti¹

	YAKI	X1	X2	X3	X4
YAKI	1				
X1	0,849244	1			
X2	0,907835	0,629103	1		
X3	0,726686	0,565732	0,598336	1	
X4	-0,689223	0,636556	0,648646	0,69734	1

Jadval qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya – Y_{AKI} omiliga nisbatan oliy o'quv yurtini bitiruvchilari soni –X1 ($r_{YAKI,X1}=0,849244$), kichik biznes subyektlari soni –X2 ($r_{YAKI,X2}=0,907835$) kuchli zichlikda va kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi –X3 ($r_{YAKI,X3}=0,726686$) o'rtacha zichlikda to'g'ri bog'langan. Ammo, viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmi bilan jami mehnat resurslari soni –X4 ($r_{YAKI,X3}=-0,689223$) o'rtacha zichlikda teskari bog'langan bo'lib, bu o'z navbatida viloyatda hozirgi kunda mehnat resurslarini oshishi natijaviy omilning kamayishiga olib keladi. Omillar o'rtasida $r_{x1,x2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval

Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmining o'zgarishini regressiya tenglamasi natijalari¹


Dependent Variable: LNYAKI				
Method: Least Squares				
Date: 05/13/23 Time: 09:08				
Sample: 2007 2022				
Included observations: 16				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN _{X1}	3.351084	0.858004	3.905676	0.0025
LN _{X2}	0.681821	0.589919	1.155788	0.0372
LN _{X3}	0.364055	0.589655	0.617403	0.0495
LN _{X4}	0.805215	0.44512	1.808984	0.0168
C	34.55614	18.61435	1.856425	0.1726
			t _{Jad} =2,200985	
R-squared	0.592067	Mean dependent var		7.490881
Adjusted R-squared	0.443728	S.D. dependent var		1.021842
S.E. of regression	0.762127	Akaike info criterion		2.544899
Sum squared resid	6.389211	Schwarz criterion		2.786333
Log likelihood	-15.35919	Hannan-Quinn criter.		2.557263
F-statistic	3.991310	Durbin-Watson stat		1.893995
Prob(F-statistic)	0.030710	F _{Jad} =0,297913		

Hisob-kitoblar jadval natijalarining koeffitsiyentlar ustunida keltirilgan qiymatlarga ko'ra, quyidagi regressiya tenglamasini yozish mumkin:

$$\ln Y_{AKI} = 3,35 \ln X_1 + 0,68 \ln X_2 + 0,36 \ln X_3 + 0,81 \ln X_4 - 34,55614 \quad (1)$$

Endi 2-jadvalning qolgan ustunlari bo'yicha keltirilgan qiymatlarga asoslangan holda 1-regressiya tenglamasining sifat mezonlar bo'yicha tekshirildi. Buning uchun dastlab, parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatliligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=11$ bo'lgan holda $t_{Jad}=2,200985$ ga tengligidan faqatgina oliy o'quv yurtini bitiruvchilari soni $-X_1(t_{X1}=3.905676 > t_{Jad}=2,200985)$ ahamiyatli bo'lib, qolgan parametrlarning haqiqatda ahamiyatli yoki ahamiyatsizligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o'rtacha mutlaq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o'lchovi) bilan tekshiriladi (1-rasm) [20, 21, 22].

¹ Muallif ishlanmasi



1-rasm. (1)-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi¹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki, MAPE=4,201 bo'lib, bu o'z navbatida MAPE=4,201<10% tengsizlikni qanoatlantirgani va TIC=0,0275<1 qiymatining nolga intilishidan 1-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatliligi kelib chiqadi. Logorifmik funksiya xossalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasini potentsirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y_{AKI} = \frac{X_1^{3.35} * X_2^{0.98} * X_3^{0.36} * X_4^{0.81}}{e^{34.55614}} \quad (1^*)$$

Hosil qilingan 1*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatliligini $\alpha=0,05$ va $k_1=11$; $k_2=4$ bo'lganda $F_{Jad}=0,297913$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=3.991310$ tengligidan $F_{Jad} < F_{his}$ shartga binoan 1*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda DW=1.894 teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

1-regressiya tenglamasiga ko'ra, agar Xorazm viloyatida oliy o'quv yurtini bitiruvchilari, kichik biznes subyektlari va mehnat resurslari soni 1,0 foizga oshirilsa, viloyat kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmi mos ravishda 158,7 mlrd. so'm, 31,8 mlrd. so'm va 37,9 mlrd. so'mga qo'shimcha oshishi aniqlandi. Agar viloyatda kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini 1,0

¹ Muallif ishlanmasi

foizga oshiriladigan bo'lsa, bu vaqtda Xorazm viloyatida asosiy kapitaliga o'zlashtirilgan investitsiya hajmi 16,8 mlrd. so'mga qo'shimcha oshadi.

Endi Xorazm viloyati kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning viloyat statistika boshqarmasining 2010-2024-yillarda olingan statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda, kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz. Buning uchun Xorazm viloyati kichik biznes subyektlariga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi – Y_x o'zgarishiga oliy o'quv yurtini bitiruvchilari soni – X_1 , kichik biznes subyektlari soni – X_2 , kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X_3 va jami mehnat resurslari soni – X_4 omillarni dastlab natijaviy va o'zaro omillarning bog'lanish (korrelyatsiya) koeffitsiyenti aniqlanadi (3-jadval) [20, 21, 22].

3-jadval

Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti¹

	Y_x	X_1	X_2	X_3	X_4
Y_x	1				
X_1	0,925899	1			
X_2	0,884067	0,829103	1		
X_3	0,892058	0,779559	0,783095	1	
X_4	0,725455	0,636556	0,848646	0,852719	1

Jadvallar keltirilgan hisob-kitob natijalarining qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi – Y_x omiliga nisbatan oliy o'quv yurtini bitiruvchilari soni – X_1 ($r_{Y_{AKI},X_1}=0,925899$), kichik biznes subyektlari soni – X_2 ($r_{Y_{AKI},X_2}=0,884067$) va kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X_3 ($r_{Y_{AKI},X_3}=0,892058$) kuchli zichlikda hamda viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmi bilan jami mehnat resurslari soni – X_4 ($r_{Y_{AKI},X_4}=0,689223$) o'rtacha zichlikda to'g'ri bog'langan bo'lib, bu o'z navbatida viloyatda hozirgi barcha tanlangan omillarning oshishi natijaviy omilning ham oshishiga olib keladi.

Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi sifatida tanlangan omillar o'rtasida $r_{x_1,x_2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Buning uchun avvalambor, tanlangan omillarning har birini o'lchov birliklari turlichaligini e'tiborga oladigan bo'lsak, logorifmlab olish lozim. Shu bois biz barcha omillarni (natijaviy omilning ham) ye asosga ko'ra natural logorifmlab olamiz (4-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

4-jadval
Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlariga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o‘zgarishini regressiya tenglamasi natijalari¹


Dependent Variable: LNYX				
Method: Least Squares				
Date: 05/13/23 Time: 10:05				
Sample: 2007 2022				
Included observations: 16				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN _{X1}	2.182364	0.709958	3.073934	0.0106
LN _{X2}	1.200421	0.958765	1.252049	0.0265
LN _{X3}	0.622015	0.231326	2.688913	0.0211
LN _{X4}	0.004674	0.470687	0.009929	0.0023
C	-26.84367	8.474349	-3.167638	0.0093
			t _{jad} =2,200985	
R-squared	0.934672	Mean dependent var		4.960758
Adjusted R-squared	0.910917	S.D. dependent var		1.831444
S.E. of regression	0.546627	Akaike info criterion		1.880208
Sum squared resid	3.286817	Schwarz criterion		2.121642
Log likelihood	-10.04166	Hannan-Quinn criter.		1.892571
F-statistic	39.34552	Durbin-Watson stat		1.915266
Prob(F-statistic)	0.000002	F _{jad} =0,297913		

Jadval ma’lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

$$LnY_X = 2,1LnX_1 + 1,2LnX_2 + 0,62LnX_3 + 0,01LnX_4 - 26,84367 \quad (2)$$

Endi belgilangan tartibga ko‘ra, aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo‘yicha $\alpha=0,05$ va $df=11$ bo‘lgan holda $t_{jad}=2,200985$ ga tengligidan foydalanib tenglama parametrlarining ahamiyatligini tekshiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, oliy o‘quv yurtini bitiruvchilari soni – X_1 ($t_{X1}=3.073934 > t_{jad}=2,200985$) va kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X_3 ($t_{X3}=2.688913 > t_{jad}=2,200985$) omillarning parametrlarini ahamiyatligi kelib chiqib, qolgan parametrlarning ahamiyatli yoki ahamiyatsizligini MAPE va TIC retrospektiv sifat mezonlari bilan tekshirish talab etiladi (2-rasm) [20, 21, 22].

¹ Muallif ishlanmasi



2-rasm. (2)-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi¹

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, MAPE=8,455 bo'lib, bu MAPE<10% shartga ko'ra, MAPE=8,455<10% tengsizlik bajarilganligi va TIC=0,0416<1 prognoz aniqligining shunchalik nolga intilishidan 2-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatligi kelib chiqadi. Matematika qoidalariga va logoritmik funksiya xossalriga hamda model qiymatlarining hayotiy statistik ma'lumotlariga mosligini o'rnatish maqsadida hosil qilingan 2-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y_X = \frac{X_1^{3.35} * X_2^{0.98} * X_3^{0.36} * X_4^{0.81}}{e^{26.84367}} \quad (2^*)$$

Albatta, sifat mezonlari bo'yicha tekshirishning keyingi bosqichida 2*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatligini Fisher mezonini va adekvatligini Darbin-Uotson mezonini bilan tekshiramiz. Unga ko'ra, $\alpha=0,05$ va $k_1=11$; $k_2=4$ bo'lganda $F_{Jad}=0,297913$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=39.35$ tengligidan $F_{Jad} < F_{his}$ shartga binoan 2.3.1*-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda DW=1.915 teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Agar aniqlangan regressiya tenglamasiga iqtisodiy jihatdan izoh beradigan bo'lsak, viloyatda oliy o'quv yurtini bitiruvchilari, kichik biznes subyektlari va jami mehnat resurslari sonining har bir omili alohida holda 1,0 foizga oshirilsa, viloyat kichik biznes subyektlariga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi mos ravishda 59,2 mlrd so'm, 32,4 mlrd so'm va 0,3 mlrd so'mga qo'shimcha oshishi aniqlangan. Agar viloyat kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 1,0 mlrd so'mga oshirilsa, viloyat kichik biznes subyektlariga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi qo'shimcha 1,2 mlrd so'mga oshishi ta'minlanadi.

Tahlil natijalarini umumlashtiradigan bo'lsak, viloyatda oliy o'quv yurtini bitiruvchilari, kichik biznes subyektlari soni va kichik biznes subyektlarida ishlab

¹ Muallif ishlanmasi

chiqarilgan mahsulot hajmi omillarini oshirish orqali asosiy kapitalga investitsiyalarni, ayniqsa xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kengaytirishga hissa qo'shish imkoniyati aniqlangan. Bu borada eng avvalo viloyatda oliy ma'lumotli mutaxassislar sonini oshirish va ularni band qilish uchun yangi kichik biznes subyektlari hamda qo'shma korxonalarni tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bu nisbat alohida hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan belgilanadi. Mehnat resurslarini hududiy tashkil etishning mavjud shakllari mehnat potensialining o'ziga xos sifat va miqdor xususiyatlariga ega ishlashini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tabiati bandlik darajasini hamda uning tarmoqlar bo'yicha, jinsi va yoshi bo'yicha tuzilishini belgilaydi va mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiyalarni jalb qilish sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy asoslari samaradorligini turli usullar va ta'sir vositalari orqali oshirishning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirish, ularni shunday tarzda aniqlash va iqtisodiyotning investitsiyalar uchun jozibadorligini oshirish imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanishi kerak. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishda quyidagi chora-tadbirlar samarali bo'lishi mumkin:

- Investorlarni izlash markazlarini shakllantirish, ularning asosiy faoliyatini potensial investorlar bozorlarini o'rganish va ularni investitsiyalarga jalb etish siyosatini ishlab chiqish hamda investitsiya resurslarini jalb qilish uchun eng jozibador loyihalarni taqdim etishga qaratish;

- Tanlangan obyektga sarmoya kiritish uchun yirik va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarini birlashtirishni nazarda tutadigan xayriya investitsiyalari (ijtimoiy-madaniy soha obyektlari) bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish. Xayriya investitsiyalari keng doirada, ochiq va shaffof tarzda ommaviy axborot vositalarida yoritilib, investorlar e'tiborini jalb qilish va ommalashtirish orqali amalga oshirilishi kerak;

- Davlatlararo munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash, hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish asosida boshqa davlatlarning hududiy jihatdan qo'shni hududlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, sanoatning ayrim tarmoqlari va faoliyat sohalari bo'yicha hamkorlik qilish, kadrlar almashinuvi dasturlarini shakllantirish va bunday hamkorlikni maksimal darajada yo'naltirish hamda innovatsion usullarni, eng yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini jalb qilish;

- Shaharlarda yirik savdo markazlarini (yoki mintaqadagi investorlar tomonidan maksimal talab bilan tavsiflanadigan boshqa obyektlarni) qurishga ruxsat berish tartibini shakllantirish. Bunda quruvchi birinchi navbatda iqtisodiyotning boshqa obyektlariga investitsiya kiritish majburiyatini olishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Foreign direct investment in Europe stalls amidst economic uncertainty, France remains top destination for investors. 11 May 2023, https://www.ey.com/en_gl/news/2023/05/foreign-direct-investment-in-europe-stalls-amidst-economic-uncertainty-france-remains-top-destination-for-investors
2. Investment Policy and Promotion. <https://www.worldbank.org/en/topic/investment-climate/brief/investment-policy-and-promotion>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/6600413>
4. Гитман Л. Дж., Джонк М. Д. Основы инвестирования; [пер. с англ. О.В. Буклемишев и др.]. М.: Дело, 2010. 991 с.;
5. Dunning J., Narullo R. Trade, location of economic activity and the MNE: a search for an eclectic approach. // The International Allocation of Economic Activity / Edited by B.Ohlin and P.O. Hesselborn. – London: Macmillan, 1977. — pp. 395-418.;
6. Kubakh T.G. Investment climate of the state: theoretical and practical aspects / T.G. Kubakh // Effective economy. 2013. No. 12. URL: <http://www.economy.nayka.com.ua/?op=1&z=2604.;>
7. Hladii S. The financial mechanism of investing in innovative development: theoretical and methodological management approach. Science is young. 2005. No. 3. URL: http://www.library.tane/edu.ua/images/nauk_vydannya/gHL8ef.pdf;
8. Агафонов А.А. Проектное финансирование как форма инвестиционного кредитования малого бизнеса / А.А. Агафонов // Экономика и предпринимательство. – 2014. – №5- ч.1. – С. 711.;
9. Бугаев В.К. Системные свойства региона Регионология №2-2008.-С.10-11.;
10. Герасимчук З.В. Инвестиционный потенциал региона: методика оценки, механизмы наращивания: монография / З.В. Герасимчук, В.Р. Ткачук. – Луцк: Надстырь, 2009. – 232 с.;
11. Давыдова Л. В., Ильминская С.В. Формирование стратегии развития инвестиционного потенциала региона на основе оценки инвестиционных процессов //Региональная экономика: теория и практика. — №1 (40). – 2007. – с 17.
12. Игнатюк В.В., Малахова Ю.А., Сукманюк В.М. Современные источники финансирования инвестиционных потребностей компании. Приазовский экономический вестник, 2020, №2 (19). [Электронный ресурс]. URL: <http://rev.kpu.zp.ua/vypusk-2-19> (дата обращения 08.02.2021).;
13. Вахобов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: «Молия», 2010. – 10 б.;
14. Каримов Н.Г. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмлари жорий этиш муаммолари: Иқтисод фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2007. 40 б.;

15. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларни тармоқлараро тақсимлашнинг эконометрик моделлаштириш услубиятини такомиллаштириш: Иқтисод фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2019. 24 б.;

16. Отажанов У.А. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг инвестицион салоҳиятини эконометрик баҳолашнинг интеллектуал фаолиятини такомиллаштириш: Иқтисод фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2022. 26 б.;

17. Юлдашев Ш.Ф. Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Т.: 2001. – 37 с.;

18. Юлдашев Р.З. Совершенствование управления инвестиционным обеспечением приватизированных предприятий Узбекистана. Монография. Т.: 2009. – 210 с.;

19. Рустамова Д.Д. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида хорижий инвестицияларни жалб этишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари: Иқтисод фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2006. – 23 б.;

20. Махмудов Э.А. Прямые иностранные инвестиции в экономику Узбекистан: достижения, проблемы и перспективы. – Ташкент: 2007.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**